

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI  
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.28/05.05.2023.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**JUMANIYOZOVA MUHAYYO TOJIYEVNA**

**UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA  
IJTIMOIY-GUMANITAR YO‘NALISH PEDAGOGLARINING  
KREATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (DSc)**

**Jumaniyozova Muhayo Tojiyevna**

Uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yoʻnalish pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirish..... 3

**Жуманиёзова Мухайё Тожиевна**

Совершенствование креативной компетентности преподавателей социально-гуманитарного направления в процессе непрерывного повышения квалификации..... 33

**Jumaniyozova Mukhayo Tojievna**

Improving the creative competence of teachers of the socio-humanitarian direction in the process of continuous professional development..... 67

**Eʼlon qilingan ishlar roʻuxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 72

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI  
ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.28/05.05.2023.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**JUMANIYOZOVA MUHAYYO TOJIYEVNA**

**UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA  
IJTIMOIY-GUMANITAR YO‘NALISH PEDAGOGLARINING  
KREATIV KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.3.DSc/Ped516 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzpfiti.uz](http://www.uzpfiti.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mardonov Shukrullo Qo‘ldashevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Ismailova Zuhra Qaraboyevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Abdullayev Safibullo Xabibulloyevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi DSc.28/05.05.2023.Ped.165.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100736, Toshkent shahri, Furqat ko‘chasi, 174-uy. Tel.: (99871) 254-63-21; faks: (99871) 254-63-21; e-mail: [uzpfiti1@umail.uz](mailto:uzpfiti1@umail.uz), [uzpfiti@exat.uz](mailto:uzpfiti@exat.uz))

Dissertatsiya bilan T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100736, Toshkent shahri, Furqat ko‘chasi, 174-uy. Tel.: (99871) 254-63-21; faks: (99871) 254-63-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**X.I.Ibraimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**X.M.Tojiboyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
p.f.d. (DSc), k.i.x.

**A.X.Maxmudov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
p.f.d. (DSc), k.i.x.

## KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon oliy ta'lim tizimlarida kreativ kompetentlikni takomillashtirish muammosiga alohida ahamiyat berilishining sababini pedagog kadrlarning kasbiy ehtiyojlari va pedagogik mahoratini global jamiyatning zamonaviy rivojlanish darajasiga moslashtirish zarurati sifatida tushunish lozim. “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDGs, BMT), “Yevropa oliy ta'lim makoni” (EHEA), YUNESKOning “Bilim jamiyatlari tomon” (UNESCO. World Report 2005. “Towards Knowledge Societies”), “Hayot davomida ta'lim” (lifelong learning), YUNESKOning kattalar ta'limi bo'yicha oltinchi Xalqaro konferensiyasida (CONFINTEA VI) qabul qilingan “Belen harakatlar me'yori”, kasbiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha Yevropa markazi – (CEDEFOP), “Strategiya 2020” (Rossiya) konsepsiyalari mazmunida kreativ yondashuvga asoslangan ta'lim (creative approach-based education) modelini joriy etish, ta'lim muhitini demokratlashtirish asosida kreativ fikrlash ko'nikmalarini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish XXI asr ta'limining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Jahon hamjamiyatida kasbiy rivojlanishning zamonaviy yo'nalishlari tinchlik va taraqqiyot o'zaro bog'liq bo'lgan “tinchlik, inson huquqlari va demokratiyani qo'llab-quvvatlovchi ta'lim”, “rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim”, “insonning erkin va to'laqonli rivojlanishi” mumkin bo'lgan, shaxs va jamiyat nuqtai nazaridan “qadr-qimmat va teng huquqlar”ni tan oladigan, ta'limni “tanlash” va “ta'lim ehtiyojlari” uchun imkoniyatlar mavjud bo'lgan dunyo ta'limi sari ilgari lab bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning kadrlar tayyorlash tizimlarida moslashuvchan (soft skills) kompetensiyalarni akmeologik, innovatsion, kompetensiyali, tizimli, andragogik, integrativ, aksiologik va evtagogik yondashuvlar asosida ijtimoiy muhitda transprofessional ko'nikmalar sifatida rivojlantirish, kasbiy-pedagogik ta'lim mazmunini individuallashtirish, raqamli texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida kreativ kompetentlikni takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini qo'llash zaruratidan kelib chiqib, rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ularning kasbiy malakasini oshirishning zamonaviy shakllarini hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat natijalarini inobatga oladigan tabaqalashtirilgan va muqobil uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga keng joriy etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini xalqaro standartlar darajasiga moslashtirish, pedagog kadrlarni kasbiy salohiyatini yuksaltirish asosida uzluksiz ta'lim tizimida yuqori natijadorlikka erishish vazifalari belgilangan<sup>1</sup>.

Bu vazifalar uzluksiz malaka oshirish ta'limi sifatini takomillashtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, xalqaro ta'lim

---

<sup>1</sup> Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5789-son Farmoni. 2019-yil 27-avgust.

standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish; pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorlari hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Kattalarni o'qitish uchun qabul qilingan xalqaro hujjatlarda, jumladan, kattalarni o'qitishning Gamburg deklaratsiyasi (The Hamburg Declaration on Adult Learning, 1997); kattalarni o'qitishning mazmuni va kelajagi to'g'risidagi YUNESKO deklaratsiyasi; harakatlar uchun Dakar ramkasi: hamma uchun ta'lim: jamoaviy majburiyatlarni bajarish (The Dakar framework for Action: Education for All: Meeting our Collective Commitments UNESCO); Ta'lim huquqi (YUNESKO: the Right to Education); Yevropa komissiyasi deklaratsiyasi; Yevropada hayot davomida ta'lim olish (Lifelong Learning in Europe: Moving Towards EFA Goals and CONFINTEA V); Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlararo hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar mutaxassislarining o'qituvchini kasbiy rivojlantirish va malakasini oshirish sohasida hamkorlik to'g'risida bitimi (Yalta, 2007), CONFINTEA VII Marokash Harakatlar doirasi: kattalar ta'limi va ta'limning transformatsion kuchidan foydalanish (Marokash, 2022) asosida katta yoshlilar ta'limini texnologiyalashgan jamiyatga yo'naltirishning xalqaro normalari belgilab berilgan.

O'qituvchilar uchun texnologiyalarni yaratish (YUNESKOning umrbod ta'lim instituti); ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar talablariga moslashish va rivojlanish

---

<sup>2</sup> Mazkur qism <https://unesdoc.unesco.org/search/N-EXILORE-93946cf0-1133-4b43-aed6-ee8d2717a984>, <https://en.snu.ac.kr/research/highlights>, <https://en.sjtu.edu.cn/>, <https://www.skolkovo.ru/>, <https://www.londonmet.ac.uk/>, [https://www.uninige.net/ru/6500/university\\_of\\_the\\_peloponnese](https://www.uninige.net/ru/6500/university_of_the_peloponnese) <https://www.stanford.edu/>, <https://le.ac.uk/> materiallari asosida tayyorlandi.

uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash (Seoul national University); ta'limdagi innovatsiyalar: hayot davomida ta'lim olish uchun samarali o'qitish va o'rganish usullari va kontekstlarini ishlab chiqish (Korea Advanced Institute of Science & Technology, Janubiy Koreya); kattalar ta'limida asosiy savodxonlik uchun mobil texnologiyalardan foydalanish, onlayn va masofadan turib uchinchi darajali malakalarni olish, xavfsizroq va samaraliroq o'qitish uchun virtual borliqdan foydalanish masalalari (London Metropolitan University, Angliya, Shanghai Jiao Tong University, SJTU, Xitoy); fuqarolik ta'limi: o'zgarishlar uchun kattalar ta'limini kuchaytirish muammolari (University of Peloponnese, Gretsiya) bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bugungi kunga kelib jahonning ilg'or ilmiy markazlarida tadqiq etib kelinmoqda.

Ta'lim tizimlarini rivojlantirish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadigan Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Finlandiya kabi davlatlarda andragogik ta'lim xizmatlarini tashkil etish, bilim, ko'nikma va malakalarni doimiy ravishda yangilaydigan maqsadli ta'lim faoliyatini yo'lga qo'yish; ta'lim kontekstida ishtirok etishda to'liq uzluksizlikni ta'minlash; "hayot davomida ta'lim" – umr bo'yi doimiy yoki davriy ravishda o'rganish; hayotning har qanday bosqichida rasmiy, norasmiy, informal ta'limning bir-birini to'ldirishiga e'tibor qaratish, norasmiy va informal ta'limni sezilarli darajada yaxshilash; ta'limda ishtirok etish, natijalar muhimligini tushunish va qadrlash, bilimlar jamiyatida barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lish; intellektual jamiyatning eng muhim boyligi sifatida inson resurslariga investitsiyalar darajasini sezilarli oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini metodologik rivojlantirish muammolari, uzluksiz va uzviylik tamoyillari asosida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari J.G.Yo'ldoshev, R.X.Djurayev, N.A.Muslimov, O.Musurmanova, X.I.Ibragimov, B.S.Abdullayeva, O'.Q.Tolipov, Sh.Q.Mardonov, A.A.Xalikov, D.I.Yunusova, O.A.Qo'ysinov, A.D.Asqarov, A.S.Djurayev, S.Yu.Maxmudov, M.T.Mirsoliyeva, M.A.Yuldashev, G.Ibragimova, F.Zokirova, Sh.Pozilova, A.R.Aripdjanova, M.J.Shodiyeva, N.Karimovalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: RTM, 2004. – 104 b., Djurayev R.X. va boshq. Integratsiyalashgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti: Monografiya. – T., 2009. – 176 b., Muslimov N. Kacb ta'limi o'qituvchilarini kacbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2007. – 337 b., Musurmanova O. Kreativlik-pedagog kadrlar kompetentligini belgilovchi muhim indikator // Oliy ta'lim: muammo va yechimlar: Respublika konferensiyasi materiallari. – T., 2020. – B. 27-32, Ibragimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika: Darslik. – T.: SAHHOF, 2023 – 416 b., Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T.: TDPU, 2006. – 263 b., Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida ummumehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2004. – 299-b., Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2006. – 302 b., Xaliquv A.A. Pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b., Исянов Р.Г. Кластерный подход в формировании модульной компетентности преподавателей высших образовательных учреждений. – T.: ТГПУ, 2014. – 69 с., Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2019. – 237 b., Djurayev A.S. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. bo'y. fals. d-ri (PhD) ... dis. Avtoref. – Samarqand, 2019. – 50 b., Mirsoliyeva M.T. Oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... dis. Avtoref. – T., 2019. – 65 b., Yuldashev.M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan. dok. dis. – T.: 2016. – 309 b., Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish. P.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. Avtoref. – T., 2007. – 24 b., Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: Дис. док. пед. наук. – T., 2008. – 312 с., Asqarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish: Ped. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) ... Dis. – T., 2017. – 250 b., Pozilova Sh. Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi: Ped. Fanl. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... Dis. – T., 2019. – 198 b., Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy

MDH mamlakatlarida zamonaviy yondashuvlar asosida shaxs faoliyati va kasbiy professionalligini takomillashtirishning pedagogika masalalari, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi, andragogik tamoyillari va texnologiyalari, kasbiy o'z-o'zini takomillashtirishning konseptual masalalari B.G.Anan'ev, N.P.Ansimova, A.V.Brushlinskiy, A.Maslou, E.L.Grigorenko, V.V.Davidov, A.YA.Danilyuk, B.S.Gershunskiy, A.A.Leontev, V.I.Kurbatov, I.T.Frolov, S.A.Pozdnyakov, A.V.Xutorskoy, S.L.Rubinshteyn, M.N.Gladko, M.M.Kashapov, V.A.Slastenin, V.V.Moroz, N.V.Vishnyakova, V.I.Andreev, D.B.Bogoyavlenskaya, M.M.Rubinshteyn, A.V.Morozov, V.A.Kan-Kalik, E.P.Ilin, V.N.Drujinin, T.A.Barisheva va boshqalar tomonidan ilmiy tahlil qilingan<sup>4</sup>.

Zamonaviy oliy ta'limning mazmuni va texnologiyalari, pedagogik ijodkorlikning ko'rinishlari, kreativ faoliyat, kreativ qobiliyatlarni shakllantirish, oliy maktab o'qituvchisining kreativ potensialini rivojlantirish, kreativ o'quv muhitini tashkil etish muammolari, tafakkur va kreativlik o'rtasidagi bog'liqlik masalalari P.Drapeau, G.P.Guilford, R.J.Hallman, E.Torrens, J.S.Renzulli, T.P.Sones, M.Lage, G.Platt, S.Hase, C.Kenyon, F.Garnett, K.King, P.Lawler kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashining 2018-yil 22-dekabrda 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2018-2022-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish Bosh strategiyasi" hamda OT-A1-118 "O'zbekiston Respublikasida ko'p qirrali madaniy ta'lim

---

rivojlanish texnologiyalarini takomillashtirish: Ped. f.d. (DSs) ... Dis. – T., 2022. – 257 b. Aripjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. p.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref. – T., 2017. – 24 b.

<sup>4</sup> Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды: в 2 т. – М.: Педагогика, 2010. – 288 с., Ансимова Н.П. Психология постановки учебных целей. – Ярославль: ЯГПУ, 2006. – 267 с., Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение. – М.: Изд-во «Институт практической психологии»; Воронеж: НПО «Модэк», 1996. – 392 с., Григоренко Е.Л. Влияние индивидуальных особенностей когнитивного развития на овладение навыками чтения и письма младшими школьниками: Дис. д-ра психол. наук. – М., 2012. – 299 с., Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Учеб. Пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: «Академия», 2004.-288 с., Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. – Ростов-н/Д., 2000. – 440 с., Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века. – М.: Просвещение, 1998. – 608 с., Леонтьев А.А. Психология общения. 2-е изд., - М.: Смысл, 1997.- 365 с., Курбатов В.И. Стратегия делового успеха: Учебное пособие для студентов вузов. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2005. – 416 с., Фролов И.Т. Перспективы человека: Опыт комплексной постановки проблемы, дискуссии, обобщения. М.: Политиздат, 2003. – 350 с., Поздняков С.А., Васильченко Р.Э. Анализ качества опросников «Самодиагностика уровня креативности» и «Креативность в профессиональной деятельности» // Концепт. – 2015. – Спецвыпуск № 07. – ART 75106. – 0,4 п. л., Хуторской А.В. Развитие одаренности школьников методом продуктивного обучения. – М.: Владос, 2000. – 320 с., Рубинштейн М.М. Проблема учителя: Учебное пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2004.- 176 с., Сластенин В. А., Подымова Л. С. Педагогика: инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997. – 224с., Вишнякова Н.В. Психологические основы развития креативности в профессиональной акмеологии: Дис. д-ра психол. наук. – М., 1996. – 295 с. Андреев В.И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного мышления и мудрости. – Казань: Центр инновационных технологий, 2015. – 288 с., Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей: Учеб.пособие для студ. высш. уч. заведений. – М.: Академия, 2002. — 320 с., Рубинштейн М.М. Проблема учителя: Учебное пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2004. – 176 с., Морозов А.В. Формирование креативности преподавателя высшей школы в системе непрерывного образования: Дис. ... д-ра пед. наук. – М., 2004. – 445 с., Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – М.: Педагогика, 1990. – 144 с., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. <http://www.litres.ru> – Питер; СПб.; 2009. – 434 с., Дружинин В. Н. Психология общих способностей. – 3-изд. – СПб.: Питер, 2007. – 368 с.; Барышева Т.А. Креативность. Диагностика и развитие. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2002. – 205 с., Барышева Т.А. Креативность. Диагностика и развитие. – СПб.: РГПУ им. А.И.Герцена, 2002. – 205 с.

<sup>5</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. –144 с., Guilford G.P. Aptitude for creative thinking: one or talu? // Ibil., 1996. Vol.10. N3. II. 165-169., Hallmann R.J. The necessary and sufficient conditions of creativity// Creativity: its educational implications. N.Y.; L.; Sidney, 1997, Torrance E.П. Developing creative thinking through school experience. – N.Y., 1992. – 215 п., Maslau A. Motivatsiya i lichnost. A.Maslou-Sp.: Piter, 2008.-352 с., Renzulli J.S. The enrichment triad model: A guide for developing defensible programs for the gifted and talented/Wethersfield, Conn.: Creative Learning Press, 1998., Sones T.П. Creative learning in perspective. London Press, 1992., Lage M., Platt G. & Treglia M. Inverting the Classroom: A Gateway to Creating an Inclusive Learning Environment, The Journal of Economic Education, 31(1), 2000, 30 ng, Hase, S., & Kenyon, C. (2000). From andragogy to heutagogy. In UltiBase Articles. Retrieved from. <https://blog.bitobe.ru/article/khyutagogika-evtagogika>. Garnett, F. Heutagogy, Emergent, Ambient. November 18, 2010. <https://blog.bitobe.ru/article/khyutagogika-evtagogika/>. King, Kathleen & Lawler, П.. (2003). New perspectives on designing and implementing professional development for teachers of adults, New Directions in Adult and Continuing Education, No. 98.

muhitida o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish" (2019-2021-yy) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** uzluksiz malaka oshirish jarayonida oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ kompetentligini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

uzluksiz malaka oshirish jarayonida kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning zamonaviy yondashuvlari asosida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligining komponentlarini aniqlashtirish;

uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligining rivojlanish bosqichlari mazmunini asoslash;

uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelini takomillashtirish;

raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogining shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi va individual-kasbiy rivojlanish dasturini takomillashtirish;

ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirish mezonlari, indikatorlari, darajalarini aniqlash, kreativ kompetentlikni diagnostika qilishga qaratilgan didaktik resurslar va uslubiy ta'minotini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyeksi** sifatida oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining uzluksiz malaka oshirish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining uzluksiz malaka oshirish jarayoni mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarish jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, tizimli tahlil, pedagogik diagnostika, so'rovnoma, intervyu, ilmiy bashoratlash, modellashtirish, monitoring, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash, kvalimetrik tahlil kabi nazariy, empirik va amaliy metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligining motivatsion, kognitiv, ijtimoiy, aksiologik, emotsional va introspeksiya komponentlari ta'limning andragogik, kompetensiyaviy, aksiologik, innovatsion, tizimli va evtagogik paradigmalari asosida, kreativlikning falsafiy, pedagogik va psixologik xususiyatlariga mos holda aniqlangan;

uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini (analitik tahlil, konsentratsiya, g'oyalar inkubatsiyasi, g'oyalar qidirish yo'lidagi past-balandliklar, to'liqinli taraqqiyot, analiz va sintez asosida) rivojlanish bosqichlari (motivatsion-hissiy, taqlid qilish, ta'sirlarni uzatish, kasbiy transformatsiya va kreativlikni uyg'unlashtirish) va ularning mazmuni andragogik talablar asosida takomillashtirilgan;

rasmiy, norasmiy va informal ta'lim muhitida adekvatlik, aniqlik, universallik talablariga mos ravishda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni modeli takomillashtirilgan;

ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi va individual-kasbiy rivojlanish dasturi ta'limdagi raqamli transformatsiya jarayonlari, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning integral xususiyatlari, uzluksiz malaka oshirish tizimida kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash vositalari, individual ta'lim manbalarini belgilash asosida rivojlantirilgan;

ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirish indikatorlari (o'z-o'zini rivojlantirish, empatiya, refleksiv, kognitiv, natijadorlik, adekvat metodlardan foydalanish, tizimli fikrlash), darajalari (yuqori, o'rta, quyi) hamda kreativ kompetentlikni diagnostika qilishga qaratilgan didaktik resurslar va elektron uslubiy ta'minot ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bevosita malaka oshirish kursi o'quv rejasining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish", "Pedagogning mahorati va kreativligi", "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" modullarini o'qitish metodikasi takomillashtirilgan;

malaka oshirish ta'limida "Flipped classroom", Delphi usuli, sinektika, A.Osbornning muammoni o'zgartirish texnikasi kabi innovatsion ta'lim texnologiyalari, psixogimnastik mashqlar va iyerarxik tuzilgan kreativ topshiriqlarni loyihalashning didaktik talablari belgilangan, kreativ kompetentlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv, elektron didaktik resurslari ishlab chiqilgan;

norasmiy va informal ta'lim shakllarini tashkil etishda ehtiyojga asoslangan "Pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish" masofaviy kursi dasturi, uning didaktik ta'minoti, o'quv materiallari, baholash materiallari yaratilgan;

"Innovatsion pedagogikaning nazariy asoslari, ta'lim innovatsiyalarining mohiyati va turlari modulini o'qitish metodikasi", "Tarix darslariga muammoli o'qitishni tatbiq etish" nomli uslubiy qo'llanmalar, "O'qituvchining kasbiy kreativligini takomillashtirish texnologiyasi", "O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari" nomli monografiyalar, "Umumiy pedagogika" darsligi nashr etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Muammoga pedagogik va metodik nuqtai nazardan yondashilganligi, oliy ta'lim muassasasi ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligi muammosini o'rganishda respublika va xorijlik olimlar tajribalariga asoslanilganligi, tadqiqot vazifalariga mos metodlarning tanlanganligi, tahlil va tavsifning miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi, muammo bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida nazariy va amaliy tasdig'ini topganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi hamda xulosa va tavsiyalarni amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "kreativlik" tushunchasining falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil etilganligi va ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogi kreativ

kompetentligining tuzilmasi, rivojlanish bosqichlari aniqlanganligi, uzluksiz malaka oshirishning rasmiy, norasmiy va informal ta'lim shakllarini o'zaro variativligi, norasmiy va informal ta'lim asosida kreativ kompetentlikni rivojlantirishning umumpedagogik xususiyatlariga mos metodik shart-sharoitlar (kompetensiyaga asoslangan yondashuv, malaka oshirish jarayonida pedagoglarni kreativ o'qitish va rivojlantirish, ijodiy rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari bilan qurollantirish, jamoaviy ijodiy laboratoriyalar yaratish, ilmiy-tadqiqot sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kasbiy va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini rivojlantirish) va o'ziga xos sharoitlar (shaxsiy rivojlanish yondashuvi, intellektual, ma'naviy, ijtimoiy, individual) aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati malaka oshirish kurslari uchun darslik, o'quv qo'llanma, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda uzluksiz malaka oshirish jarayonlarida oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligining tizimli modelidan, kreativ o'qitishning tashkiliy-pedagogik shartlari, bosqichlari, usul va vositalaridan, o'quv-uslubiy ta'minoti, baholash mezonlari, indikatorlaridan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ kompetentligini uzluksiz malaka oshirish jarayonlarida takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligining komponentlari (motivatsion, kognitiv, ijtimoiy, aksiologik, emotsional va introspeksiya) ta'limning andragogik, kompetensiyaviy, aksiologik, innovatsion, tizimli va evtagogik paradigmalari tamoyillari orqali shaxs kreativligining falsafiy, pedagogik va psixologik xususiyatlariga oid olingan ilmiy natijalar, xulosa va tavsiyalar "Gumanitar fanlar" ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 21-iyundagi 02/14-1219-son ma'lumotnomasi). Natijada, tegishli yo'nalishlar bo'yicha pedagog kadrlar tayyorgarligiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari mazmuni boyitilgan;

uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini (analitik tahlil, konsentratsiya, g'oyalar inkubatsiyasi, g'oyalar qidirish yo'lidagi past-balandliklar, to'liqlik taraqiyot, analiz va sintez asosida) rivojlanish bosqichlari (motivatsion-hissiy, taqlid qilish, ta'sirlarni uzatish, kasbiy transformatsiya va kreativlikni uyg'unlashtirish) va ularning andragogik talablar asosida takomillashtirilgan mazmuniga oid xulosa va tavsiyalardan 2019-2022-yillar davomida Yevropa Ittifoqi Yevropa ijtimoiy jamg'armasining "PPI/RM/2019/1/00004 – 3D Digital Silk Road" mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 21-iyundagi 02/14-1219-son ma'lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kasbiy kompetensiyalari tarkibi takomillashtirishga erishilgan;

rasmiy, norasmiy va informal ta'lim muhitida adekvatlik, aniqlik, universallik talablariga mos ravishda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni modelini takomillashtirishga oid xulosa va tavsiyalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining OT-A1-118 "O'zbekiston Respublikasida ko'p qirrali

madaniy ta'lim muhitida o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish" (2019-2021-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 21-iyundagi 02/14-1219 sonli ma'lumotnomasi). Natijada uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining kreativ kompetentligi samarali rivojlantirilgan;

ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi va individual-kasbiy rivojlanish dasturi ta'limdagi raqamli transformatsiya jarayonlari, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning integral xususiyatlari, uzluksiz malaka oshirish tizimida kasbiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash vositalari, individual ta'lim manbalarini belgilash asosida rivojlantirishga oid xulosa va tavsiyalar "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish", "Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish" modullari mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy metodik markazning 2023-yil 11-sentabrdagi 01-189-son ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim, ijtimoiy va gumanitar fanlar sohalari pedagog kadrlari uchun "Pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish" mavzusida ochiq ta'lim resurslari yaratilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirish indikatorlari (o'z-o'zini rivojlantirish, empatiya, refleksiv, kognitiv, natijadorlik, adekvat metodlardan foydalanish, tizimli fikrlash), darajalari (yuqori, o'rta, quyi) hamda kreativ kompetentlikni diagnostika qilishga qaratilgan didaktik resurslarga oid ilmiy xulosa va tavsiyalar "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi", "Pedagogning mahorati va kreativligi" modullari hamda "Umumiy pedagogika" (II-qism) darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 21-iyundagi 02/14-1219 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'limi va umumiy pedagogika fanining mazmuni boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi:** dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 40 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 2 ta monografiya, 1 ta darslik, 2 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 10 ta mahalliy va 6 ta xorijiy jurnallarda maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi:** dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 216 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, dissertatsiya ishining tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta‘lim muassasasi ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilib, kreativlik tushunchasining falsafiy, pedagogik, psixologik talqini, kreativ kompetentlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy-gumanitar fanlarni kreativ o‘qitish muammolari tahlil etilgan, mos ravishda kreativ kompetentlik tarkibiy tuzilmasi aniqlangan.

Kreativ yondashuvga asoslangan ta‘lim (*creative approach-based education*) modelini joriy etish, kasbiy faoliyatda kreativ kompetensiyani takomillashtirish; ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kasbiy pedagogik mahoratini kasbiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, global dunyoning zamonaviy rivojlanish darajasiga moslashtirish zarurati; ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunini tez o‘zgaruvchanligi, bilimlarning tez «eskirishi», axborotlar va ma‘lumotlarni katta tezlikda yangilanib turishi sharoitida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining metodik tayyorgarligini kuchaytirish; to‘liq raqamlashtirish dunyosida ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida sodir bo‘layotgan “raqamli burilish” pedagoglarning kasbiy faoliyatiga yangi talablarni qo‘yishi, kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni raqamli ta‘limga moslashtirishni talab etilishi; “hayot davomida o‘qish” tamoyiliga ko‘ra kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz malaka oshirish tizimida belgilangan malaka oshirish shakllarini resursli qo‘llab-quvvatlash zarurati mavjud.

Falsafada “kreativlik” va “kreativ tafakkur” tushunchalari dastlab Arastu asarlarida tahlil etilgan bo‘lib, faylasuf “kreativlik”ni ijodiy imkoniyatdan ijodiy voqealikka o‘tish jarayoni, “kreativ tafakkur”ni esa mazkur jarayonning natijasi sifatida tushuntirgan<sup>6</sup>. O‘rta asrlar Sharq falsafasining yetakchi vakillari Al-Forobiy, Ibn Sino, Al-Kindiy, Ibn Rushd, Al-G‘azzoliy asarlarida kreativlik tushunchasining mazmun-mohiyati insonning qobiliyati bilan bog‘lab izohlangan. Shu davrda G‘arb falsafasida kreativlikni bilishning yuqori bosqichi “ilohiy bilish” usuli ekanligiga urg‘u berish, uni mutloqlashtirish va inson tafakkuriga qarama-qarshi qo‘yish ko‘plab bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Foma Akvinskiy kreativlikni inson irodasiga bo‘ysunishini falsafiy jihatdan tahlil qilib bergach, kreativlik voqea va hodisalar mohiyatini insonning ijodiy aql-idroki orqali bilish xususiyatini ifodalovchi fundamental tushunchaga aylanadi.

XX asr boshida olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarda “kreativlik” tushunchasini dastlab D.Simpson qo‘llagan va “tafakkurning nostandart usuli” deb ta‘rif bergan.

Psixologiyada kreativlik asosan ikki jihatdan: yangi narsalarni yaratishning psixologik jarayoni va ushbu jarayonda shaxsni ishtirok etishini ta‘minlaydigan shaxsiy xususiyatlar (qobiliyatlar, motivlar, bilimlar, ko‘nikmalar) to‘plami sifatida o‘rganilgan.

Pedagogik tadqiqotlarda tafakkur va kreativlik bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, har qanday odamning tafakkuri doimo (hech bo‘lmaganda minimal) kreativ bo‘lishi (A.V.Brushlinskiy), kreativlik-muammolarni aniqlash va qo‘yish, ko‘p sonli g‘oyalarni yaratish, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik, muammolarni analiz va sintez

---

<sup>6</sup> Зубов В.П. Аристотель: Человек. Наука. Судьба наследия. 3-изд. - М.: УРСС, 2009. - 368 с.

qilish qobiliyati (J.Gildford) sifatida talqin etiladi. Shaxsning kreativligi inson faoliyatining turli sohalarida qarama-qarshilik, muammoli vazifaning mavjudligi, ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatlilik, jarayon yoki natijaning yangiligi va o'ziga xosligi (V.I.Andreev), intellektual qobiliyatlar orasida alohida tur sifatida har kimga xos bo'lgan, ammo atrof-muhit ta'siri ostida shaxs faoliyatida pasayib boradigan alohida yo'nalish (A.Maslou) hisoblanadi.

Tahlil etilgan tadqiqotlarda kreativlik quyidagi yo'nalishlarda o'rganilgan:

birinchi yo'nalish kreativlikni yaratilgan mahsulotlarning xususiyatlari bo'yicha o'rganadi, bunda ijodiy mahsulotning miqdori, sifati va ahamiyatini ko'rib chiqishga asosiy e'tibor qaratiladi;

ikkinchi yo'nalishda kreativlik jarayon sifatida o'rganiladi. Har qanday jarayon, shu jumladan, kreativ jarayon ham boshlanishi, davomiyligi, o'zgarishi va shunga mos ravishda qandaydir yakuniga ega bo'ladi. Bunday holda obyektiv yoki ideal kreativ mahsulot yaratilishi emas, kreativ fikrlash jarayonining turli bosqichlari, darajalari va turlari aniqlanadi;

uchinchi yo'nalishda kreativlik qobiliyat sifatida tahlil etiladi;

to'rtinchi yo'nalishda kreativlik shaxsning o'zini o'zi faollashtirishi, o'zini o'zi rivojlantirishi jarayoni bilan bog'lanadi va o'zini o'zi faollashtirgan mutaxassisning kreativligiga e'tibor qaratiladi.

XXI asr boshida olib borilgan tadqiqotlarning umumiy xulosasi sifatida R.Epshteyn tomonidan "kreativ kompetentlik" tushunchasi fanga kiritiladi, u tushunchaning mazmunini egallangan bilim va ko'nikmalarni turli nostandart vaziyatlarga moslashtirib qo'llashga tayyorlik deb tavsiflaydi.

Kreativ kompetentlik kasbiy kompetensiyaning asosiy turlaridan biri sifatida e'tirof etilib, turli soha va kasb egalari kreativ kompetentligining o'ziga xosligini o'rganishga e'tibor qaratilgan: jumladan, bo'lajak matematika o'qituvchisining kreativ kompetentligi (I.S.Bekeshova), shaxsning integrallashgan ko'pfaktorli layoqati sifatida bo'lg'usi filolog-pedagogning kreativ kompetentligi (I.Ye.Bryakova), talabalarning mustaqil ta'limga yo'nalgan kreativ kompetensiyalari (A.M.Davtyan), raqamli texnologiyalar asosida matematika-informatika yo'nalishi malaka oshirish kursi tinglovchilarining kreativ potensialni rivojlantirish (A.A.Aripdjanova), kreativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish (N.S.Xo'jayarova) va b.

"Kompetentlik" murakkab tuzilishga ega bo'lgan pedagogik kategoriya bo'lib, uning tuzilmasini kasbiy yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar, kasbiy ahamiyatga ega psixofiziologik xususiyatlar kabi to'rtta kichik guruhga ajratib ko'rsatish mumkin.

Biz kompetentlik tushunchasi aniq mazmun-mohiyat kasb etib, psixologik, pedagogik, ijtimoiy (ko'nikma va kompetensiyalar bilan birgalikda) resurslardan foydalanish va safarbar qilish yo'li bilan kasbiy ehtiyojlar majmuasini to'ldirish vositalari va jarayonlarini o'zida mujassam etadi, degan xulosaga keldik. Ta'limning andragogik, kompetensiyaviy, aksiologik, innovatsion, tizimli va evtagogik yondashuvlari tahlilida kreativ kompetentlik murakkab jarayon ekanligi, uni rivojlantirish va takomillashtirishda o'ziga xos ta'lim mazmuni, bilish jarayoni, mustaqil ta'limni tashkil etish texnologiyalari va ta'lim natijalari talab etiladi (1-jadvalga qarang).

**“Pedagogika-androgogika- evtagogika” triadasining qiyosiy tasnifi (kreativ kompetentlikka yo‘nalganlik)**

<b>Kategoriya</b>	<b>Pedagogika</b>	<b>Andragogika</b>	<b>Evtagogika</b>
<b>Ta’lim mazmuni</b>	O‘qituvchi tomonidan qat’iy tayyorlangan mazmunga, standart bilimlarga asoslanadi	Ta’lim oluvchilar o‘z bilim va tajribalarini o‘rtoqlashishi uchun o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan mazmunga asoslanadi	Ta’lim oluvchi o‘z ehtiyojidagi bilim ko‘nikmalarni egallashi uchun variativlikka asoslangan resurslar taklif etiladi
<b>Ta’lim makoni</b>	Maktab/OTM klassik ta’lim muassasasi	Kattalar ta’limi, qayta tayyorlash va malaka oshirish	Oliy ma’lumotdan keyingi o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim
<b>Bilish jarayoni</b>	Fanni tushunishga qaratilgan standart bilimlarni o‘zlashtirish, ya’ni boshqaning tajribasiga asoslanadi	Bilimlarni egallash jarayonida hamkorlikka asoslanadi	Yangi bilim, ko‘nikma va malakalar ehtiyojga ko‘ra mustaqil kashf etishga qaratiladi, Bilimni o‘zi uchun qayta kashf etish, amaliy malaka hosil qilishga asoslanadi
<b>Mustaqil ta’lim darajasi</b>	Bilish jarayoni tayyor taklif etilgan bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan Mustaqil ta’limning ahamiyati past darajada, tinglovchi-o‘rganishning manbayi	Belgilangan qat’iy tizim doirasida katta yoshlarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, avvalgi tajriba ahamiyatga ega va u bilan hisoblashiladi	Juda katta ahamiyatga ega, inson-bilim va ijodkorlikning subyekti, alternativ, o‘z g‘oyalarni yaratish va asoslash, isbotlashga yo‘naltirilgan, istalgan vaqtda ta’lim oluvchilar o‘z bilim va malakalarini almashadilar
<b>Fikrlash turi</b>	Mantiqiy, konvergent	Mantiqiy, tizimli, ijodiy, konvergent	Kreativ (konvergent, divergent va lateral), konstruktiv, tizimli
<b>Ta’lim oluvchi faoliyati</b>	Rivojlanishning keyingi bosqichiga o‘tish	Aniq bilim va ko‘nikmalarni ongli va izchil egallash	Ta’lim oluvchining o‘zida yuzagan keladigan kasbiy ehtiyojga asosan bilim va ko‘nikmalarning notekis ijodiy shakllanishi
<b>Texnologiyalar</b>	Reproduktiv-imitatsion, interfaol texnologiyalar	Interfaol, muammoli, raqamli, reproduktiv texnologiyalar	Muammoli, kognitiv-evristik, kreativ, raqamli va art-texnologiyalar
<b>O‘qituvchining roli</b>	O‘qituvchi tomonidan qat’iy nazorat, bilim berish, boshqarish	O‘qituvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi faoliyati	O‘z-o‘zini nazorat, hamkorlik, kuzatish, taklif etish, rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash
<b>Natija</b>	Rejalashtirilgan akademik bilim, tezaurus, tizimlashtirish	Kasbiy rivojlanish, bilim, ko‘nikmalarni yangilanishi, rejalashtirilgan malaka oshirish	Muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmasi, o‘z kelajagini yaratish motivatsiyasi, ehtimolliklar, noaniqliklar orqali tajriba orttirish

Kreativ kompetentlik vaziyatlarni tez idrok qilish, muammoga tez kirishish, fikrlash tezligi, fikrlashning keng qamrovliligi, tahliliy malakalar, tanqidiy fikrlash sifatlari, muammolarni aniqlash va yechimlar taklif etishda yangicha yondashuvning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Kreativ kompetentlik jarayon sifatida pedagogning kasbiy jihatdan o‘shirishini anglatib, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishlash, mustaqil ravishda bilim olishga intilish asosida rivojlanib boruvchi qadriyatga aylanadi. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ kompetentligi doimiy rivojlanib boruvchi dinamik hodisa sifatida notekis rivojlanish trayektoriyasiga ega bo‘ladi. Buning sababi pedagogning o‘z ustida ishlashi, o‘z malakasi va kasbiy darajasini oshirishga intilishi, kasbiy ehtiyojlarini anglay olishiga, ichki va tashqi motivatsiyaga, turli vaziyatlar va jarayonlarga, moddiy va ma‘naviy omillarga bog‘liq bo‘ladi.


Ma‘lumki, oliy ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlar ta‘limning tarix, falsafa, xalq an‘analari, urf-odatlar bilan uzviy birligini, O‘zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ta‘minlashi; insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminallik ruhini rivojlantirishi, mustaqil fikrlaydigan va har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishni ta‘minlashi lozim.

Zamonaviy ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlar inson va jamiyat hayotida rivojlangan fuqarolik va zarur axloqiy sifatlar, yosh avlodda zamonaviy ijtimoiy hodisalarni obyektiv baholash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi va pedagogik jihatdan ta‘lim oluvchini intellektual rivojlantirish funksiyasini; madaniyatlararo yondashuv asosida ijtimoiy-gumanitar tafakkurni shakllantirish funksiyasini; ta‘lim oluvchida ijtimoiy-gumanitar intizomni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar mentalitetni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, inson xulq-atvorining chuqur asoslarini o‘zida mujassam etadi, ta‘lim oluvchilar ongida jamiyatning eng barqaror ma‘naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlashni nazarda tutadi, sivilizatsiya, iqtisodiy hayot, milliy xarakter, haqiqatni to‘g‘ri anglash, axborotni idrok etish va uzatish; jamiyatning axloqiy, intellektual, ma‘naviy hayoti davomiyligini nazarda tutadi.

Biz ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kreativ kompetentligi tarkibiy tuzilmasini asoslashda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglariga qo‘yiladigan umumiy talablar va malaka talablari, kasbiy kompetensiyalar mazmunidan kelib chiqib yondashdik (1-rasmga qarang).

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagogi kreativ kompetentligining “motivatsion” komponenti kasbiy faoliyatda shaxsiy namoyon bo‘lishga tayyorligi, ichki va tashqi motivatsiyaning mavjudligi, motivatsiya darajasi, shaxsning qiziqish va intilishlarining darajasi, o‘z mahorati va tajribasini oshirish uchun aniq maqsad qo‘yishni ifodalaydi.



**1-rasm. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogi kreativ kompetentligining tuzilmasi**

Kreativ kompetentlikning “kognitiv” komponenti amaliy faoliyatni tashkil etish, mustaqil ravishda kasbiy o‘shirish va kasbiy malakasini oshirib borishga intilish, uni rejalashtirish va nazorat qilish, pedagogik va kasbiy faoliyat harakatlarini amalga oshirish uchun vositalar, usullar, ta’limning zamonaviy modeli, ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy fanlarning nazariy va amaliy bilimlaridan foydalanishni anglatadi.

Kreativ kompetentlikning “ijtimoiy” komponenti shaxsning xulq-atvor xususiyatlari, ijtimoiy-gumanitar tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat, ijtimoiy intizomni rivojlanganlik darajasi, ijtimoiy kommunikativlik va ijtimoiy faollik asosida o‘zaro munosabatlar va hamkorlik jarayonlarida faol bo‘lish, kasbiy kommunikativlik; ijtimoiy muhit, pedagogik faoliyatda kasbiy va ijodiy hamkorlik; jamoada ishlashga tayyorlikni o‘z ichiga oladi va professional muloqotda o‘zini tutish uslublarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi.

Kreativ kompetentlikning “aksiologik” komponenti kasbiy faoliyat jarayoni, mazmuni va natijasining shaxsiy ahamiyatini, kasbiy va shaxsiy rivojlanishning qadriyatlar sohasini, qadriyatlarning ijtimoiy-kreativ stimullar sifatidagi roli,

professional intellekt, ijodkorlikni amalga oshirish, kasbiy faoliyatda ijodiy ta'lim muhitini tashkil qilishni anglatadi.

Kreativ kompetentlikning "emotsional" komponenti kasbiy faoliyatda o'z-o'zini namoyon etish, faoliyat natijasini hissiy-ixtiyoriy tartibga solish, faoliyat natijasidan qoniqish hosil qilish, kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etishga intilish, tafakkur madaniyatiga egalik, maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlash, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashga asoslangan shaxslararo munosabatlarni qaror topishi va rivojlanishini asoslaydi.

Kreativ kompetentlikning "introspeksiya" komponenti introspektivlikni– insonning ichki xususiyatlarini rivojlantirish, o'zini o'zi nazorat qilish, kuzatish, faoliyatni tahlil qilish va baholash; shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash; kasbiy faoliyatda ichki imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashuv; kasbiy-pedagogik vaziyatlarni to'g'ri tahlil qilishni anglatadi.

Bizning fikrimizcha, pedagogning kreativ kompetentligi kasbiy-pedagogik kompetensiyalar integratsiya natijasi sifatida yuzaga keladi va pedagogning fikrlash tarzi, tafakkuri, pedagogik, kommunikativ, tashkiliy faoliyat jarayonlarida namoyon bo'ladi. Demak, kreativ kompetentlik rivojlanishi uchun mos ravishda kasbiy va tayanch kompetensiyalar rivojlanishi lozim.

Dissertatsiyaning **"Uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirish tizimi"** deb nomlangan ikkinchi bobida uzluksiz malaka oshirish jarayonida kreativ kompetentlikni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari, rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli asoslab berilgan.

Uzluksiz malaka oshirish tizimi – pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish, muntazam ravishda rivojlantirib borish imkoniyatini yaratuvchi ko'p bosqichli tizim bo'lib, ta'lim jarayonini tashkil etilish xususiyatlariga ko'ra rasmiy (bevosita malaka oshirish), norasmiy (muqobil malaka oshirish) va informal (mustaqil ta'lim) shakllaridan iborat.

Rasmiy ta'lim reja asosida amalga oshiriladigan, 144 soatdan kam bo'lmagan an'anaviy malaka oshirish kursida ta'lim olishni; norasmiy ta'lim ehtiyojga asoslangan (davomiyligi 8 soatdan kam bo'lmagan) trening kurslari, vebinar, masofaviy kurslar, muammoli, maqsadli, maxsus kurslarni va muqobil malaka oshirishni o'z ichiga oladi; informal ta'lim esa individual o'qish, mustaqil ta'lim, tajribadan o'rganish, internetda ta'lim olish kabi shakllarda pedagogning shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi va axborot maydoni asosida loyihalashtirilgan individual kasbiy rivojlanish dasturi bo'yicha amalga oshiriladi.

Uzluksiz malaka oshirishning rasmiy, norasmiy va informal shakllarining didaktik imkoniyatlari tahlil etildi (2-jadvalga qarang).

XXI asr ta'limining asosiy tamoyillaridan biri "ta'limni uyga yaqinlashtirish", ta'lim oluvchilarni oila davrasida ta'lim olishi uchun sharoit yaratish bo'lib, bu globallashtirish jarayonlari, texnologiyalashtirishni keskin o'sib borishi sharoitida bilim va ko'nikmalarni "tez eskirishi" natijasida yangi ko'nikma hamda kompetensiyalarga ehtiyojning yuqori bo'lishi bilan izohlanadi. Oliy ta'lim tizimida norasmiy ta'lim

**Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari uzluksiz malaka oshirish  
jarayonining didaktik xususiyatlari**

	<b>Elementlar</b>	<b>Informal (Mustaqil ta‘lim)</b>	<b>Norasmiy (Muqobil malaka oshirish)</b>	<b>Rasmiy (Bevosita malaka oshirish)</b>
1	<b>Maqsad va vazifalar</b>	Mutaxassislik bo‘yicha fan va texnologiyalar yutuqlari, yangiliklari bilan muntazam tanishib borish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil kasbiy rivojlanish, uzluksiz malaka oshirish	O‘zini o‘zi rivojlantirishga motivlashtirish, fanni o‘qitishning metodik ta‘minotini yangilash, takomillashtirish, ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish	Zamonaviy ta‘lim talablariga mos kasbiy rivojlantirishning davriy bosqichi, bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni chuqurlashtirish va yangilash
2	<b>Ta‘lim mazmuni</b>	Elektivlik-kasbiy rivojlanish uchun ta‘lim mazmuni ehtiyojga asoslangan, kasbiy rivojlanishni ta‘minlaydi	Tegishli o‘quv reja, o‘quv dasturi yoki ilmiy tadqiqot ishi rejasiga moslashtiriladi	Kursning tasdiqlangan o‘quv rejasi, dasturi va belgilangan modullari doirasida
3	<b>Ta‘lim usullari va vositalari</b>	Pedagogning shaxsiy-kasbiy ta‘lim trayektoriyasi, kasbiy faoliyat natijalariga ko‘ra mustaqil tanlanadi. Muddati va vaqtini tanlashda erkinlik	Qisqa muddatli onlayn va oflayn kurslar, seminar va treninglar, ilmiy-amaliy konferensiyalar	Tegishli yo‘nalish malaka oshirish kursi o‘quv rejasi bo‘yicha ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot, o‘zaro tajriba almashish
4	<b>Ta‘lim oluvchi faoliyati</b>	Kasbiy ehtiyojlar asosida mustaqil o‘qish, o‘z ustida ishlash, mahorat darslari, ochiq o‘quv mashg‘ulotlari, bo‘sh vaqtlarda	Ilmiy-uslubiy ishlar rejasi asosida, o‘quv qo‘llanma, darslik, dissertatsiya himoyasi	Umumiy asosda dars mashg‘ulotida ishtirok etish, tinglash, tushunish, bajarish.
5	<b>Ta‘lim beruvchi faoliyati</b>	Maslahatchi-mentor, fasilitator, yo‘naltiruvchi konsultant, ta‘lim loyihalarini ishlab chiquvchi mutaxassis, Internet-navigatsiya instruktori	Onlayn kurs administratori, tarmoq o‘qituvchikuratori (onlayn platforma kuratori), raqamli ta‘lim muhiti uslubchisi (arxitektori)	O‘quv modullari bo‘yicha didaktik materiallarni yaratuvchi, ma‘ruzachi, umumiy asosda dars mashg‘ulotlarini olib borish
6	<b>Natijani baholash</b>	Pedagogning shaxsiy ish rejasi asosida, HEMIS dasturida, OTM darajasida	HEMIS dasturida, elektron portfolioda	Elektron portfolio natijalari, test, bitiruv ishi himoyasi

malaka oshirishning shakli sifatida qo‘shimcha taklif etilib, bevosita malaka oshirish kurslari davriyligi (3 yil) oralig‘ida uzluksiz malaka oshirish tizimini to‘ldiruvchi xususiyatini ifodalaydi va ta‘lim-tarbiya jarayonlari, ta‘limning ijtimoiy masalalari bilan bog‘liq dolzarb mavzularda maxsus kurs dasturlari asosida tashkil etiladi. Norasmiy ta‘lim resurslari sifatida Bosh ilmiy metodik markazning <https://mk.bimm.uz/> saytida joylashtirilgan ochiq onlayn kurslar tahliliy o‘rganildi. Ushbu masofaviy kurslarning didaktik imkoniyatlari o‘quv kontentining tuzilishi, o‘quv muhitini tashkil etishning individualligi, istalgan vaqtda va istalgan joyda o‘qib, o‘rganish erkinligi, tushunish qiyin bo‘lgan o‘quv mazmunini takroriy o‘rganish imkoniyatining mavjudligi, kurs muddati va tinglovchilar kontingentining chegaralanmaganligi bilan belgilanadi. Kurslar mazmuni aniq muammoga yo‘naltirilganligi, ehtiyojga asoslanganligi sababli ularni o‘zlashtirish o‘ziga xos qulaylik yaratadi. Shuningdek, ushbu bobda ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Biz

T.A.Barisheva tomonidan taklif etilgan kreativ kompetentlikning rivojlanish bosqichlari tuzilmasiga asoslanib, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari kreativ kompetentligining rivojlanish bosqichlari va uning mazmunini ishlab chiqdik (3-jadvalga qarang).

**3-jadval**

**Kreativ kompetentlikning rivojlanish bosqichlari mazmuni**

<b>№</b>	<b>Bosqich</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Metod va vositalari</b>
1	<b>Motivatsion-irodaviy bosqich</b>	Tayyor metodik tavsiyanomalarga, mavjud o‘qitish metodikalariga ayrim yangi o‘zgarish (modifikatsiya)lar kiritish, pedagogik jarayonda subyekt-subyekt hamkorligini yo‘lga qo‘yish; pedagogik faoliyatda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	Shaxsiyatni o‘stirish treninglari, faol ta‘lim metodikalari, Suqrotcha suhbat usuli, mahorat darslari, individual maslahatlar, ochiq o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish, ko‘rgazma va tanlovlar
2	<b>Taqlid qilish bosqichi</b>	Pedagogik kasbini rivojlantirish va keng qiziqish doirasini shakllantirish, pedagogik muloqotda ochiqlikni ta‘minlash; «men-g‘oyalar» kreativ fikrlash yo‘nalishini rivojlantirish; pedagogik vazifalarni hal qilish, kreativ yondashuv, tahliliy kompetensiyalarni rivojlantirish, axborotli fikrlashni rivojlantirish	So‘rov, psixogimnastik mashqlar, individual va guruhli intervyu, ijodiy guruhda ishlash, keys, manba ma‘lumotlari tahlili, kreativ topshiriqlar tizimi, muammoli vaziyatlar tahlili
3	<b>Ta’sirlarni uzatish bosqichi</b>	Shaxsiy-kasbiy axborot maydonini loyihalash, kreativ ishlash texnologiyasini shakllantirish, yangi g‘oya yaratish va uni amalga oshirish mazmuni, metodlari va shaklini to‘la ishlab chiqish, nostandart fikrlashni rivojlantirish	Kollaborativ texnologiyalar, aralash ta‘lim, Flipped classroom, TRIZ, Delphi usuli, E.De Bononing lateral fikrlash usuli
4	<b>Kasbiy-transformatsiya bosqichi</b>	Faoliyat strukturasi, shakl va uslublarini qayta tashkil etish, faoliyatning maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirish; o‘qitishning mualliflik konsepsiyasini ishlab chiqish, o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, konvergent va divergent fikrlashni rivojlantirish	Sinektika, Uolt Disneyning kreativ fikrlash metodikasi, A.Osbornning muammolarni o‘zgartirish texnologiyasi
5	<b>Kreativlikning uyg‘unlashtirish bosqichi</b>	Kasbiy faoliyatni kreativ tashkil etishning aksiologik xususiyatlari, kreativ ta‘lim muhitini yaratish, kreativ faoliyatning yuqori bosqichi, o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasining yuqori darajasi, evristik fikrlashni rivojlantirish	Kreativ fikrlash texnikasi, raqamli gumanitar tadqiqotlarga yo‘naltirilgan metodikalar, loyihaviy ta‘lim, kroudsorsing loyihalari

Katta yoshlilar ta‘limi jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan biri bu o‘zlashtirilayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar tizimining kasbiy yoki hayotiy jarayonda o‘z o‘rnini topishga qaratilganligini ongli ravishda anglanishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini mukammallashtirish maqsadida o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning kuchliligi bilan tavsiflanadi. Uzlüksiz malaka oshirish jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlanishiga motivatsiya asos bo‘ladi hamda uning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Kreativ kompetentlik uni subyekt bo‘lgan shaxsga taaalluqli professional tajriba, bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning o‘ziga xos tizimi sifatida pedagoglarning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini rivojlantirishi jarayonida analitik tahlil,

konsentratsiya, g'oyalar inkubatsiyasi, g'oyalar qidirish yo'lidagi past-balandliklar, to'liqlik taraqqiyot, analiz va sintezga asoslangan o'z-o'zini tahlil qilishni talab etadi va shu jarayonda pedagogik faoliyat takomillashib boradi.

O'tkazilgan empirik tahlillar xulosalari, uzluksiz malaka oshirish tizimining o'ziga xos xususiyatlari, kreativ kompetentlik tuzilmasi va uni shakllanish bosqichlari xususiyatlarini hisobga olib, pedagogik modellashtirish metodi tamoyillariga ko'ra, uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli takomillashtirildi (3-rasmga qarang).

Ma'lumki, pedagogik modellashtirish – murakkab ilmiy-pedagogik tadqiqot usuli sifatida uzluksiz ta'lim tizimida nazariya va pedagogik amaliyotni mazmunan birlashtirish orqali shaxsning rivojlanish muammolarini hal qilishga qaratiladi. Shunga asosan modelimiz pedagogik obyekt sifatida osonlik bilan tashxislanadigan va boshqariladigan tuzilishga ega; uzluksiz malaka oshirish jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi; nafaqat malaka oshirish jarayonini amalga oshirish ustidan nazoratni, balki ushbu jarayonga tuzatish kiritish uchun faol aralashuvni ham ta'minlaydi; uzluksiz malaka oshirish jarayonining o'ziga xos jihatlari, aloqalari, funksiyalarini aks ettiradigan elementlardan iborat.

Loyihalashtirilgan modelning metodologik bloke mazmuni obyektini o'rganishda tizimli ilmiy tahlilni amalga oshirish; shaxs rivojlanishini personifikatsiya qilish; faoliyatda shaxsni rivojlantirish sharoitlarini optimallashtirish muammolarini sifatli hal qilish; ilmiy va pedagogik izlanishlarning nazariy imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.


Tashkiliy blok tarkibidagi uzluksiz malaka oshirishning tashkiliy shakllari kasbiy kreativlikni rivojlantirish, pedagogning shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish asosida ularning ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohalaridagi bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish, kreativ kompetentlikni rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi, bunda asosiy e'tibor pedagogning shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasiga qaratilishini izohlaydi. Tashkiliy blok kreativ kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini asoslaydi.

Mazmunli blok umumkasbiy, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikalarini, ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglarining raqamli kompetensiyalarini kreativ kompetentlik bilan integratsiya qilish asosida rivojlantirish, kasbiy professionalizmni rivojlantirishda shaxs kreativ potensialini ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Uzluksiz malaka oshirish jarayonida oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirish mexanizmi”** deb nomlangan uchinchi bobida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, texnologiyalari, metodlari, vositalari o'rganildi va pedagogning shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi va shu asosda individual kasbiy rivojlanish dasturining mazmuni ishlab chiqildi.

**Pedagog kadrlarga qo'yiladigan Davlat ta'lim talablari, MOning malaka talablari, mutaxassislik fanlari bo'yicha BKM talablari**

**MAQSAD:** uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedoglarining kreativ kompetentligini rivojlantirish



**2-rasm. Ijtimoiy gumanitar yo'nalish pedoglarini kreativ kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli**

Pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishini qo‘llab-quvvatlash va kattalar ta‘limida ta‘lim oluvchilarning mustaqil ta‘limini o‘quv ishining asosiy turi sifatida qarab, ushbu bobda “Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” modullarining mazmuni va o‘qitish metodikasini takomillashtirishga e‘tibor qaratdik. Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar va metodlarni asoslashda malaka oshirish ta‘limining rasmiy, norasmiy va informal shakllari mazmunini bir-birini to‘ldirishi tamoyiliga asoslandik.

Biz rasmiy ta‘limda “Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” modullari doirasida B.Blum taksonomiyasiga asoslangan hamda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va rivojlanish bosqichlariga mos o‘quv topshiriqlarini yaratishda tinglovchilarning bilim darajasi, “auditoriyaning ijtimoiy portreti”, tanqidiy, mantiqiy, tizimli va kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, topshiriqning murakkablik, yangilik, ahamiyatlilik, ilmiylik darajasi; o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonida tinglovchilarning ta‘limiy faoliyati tushunish, interpretatsiya, ekstrapolyasiya, bilimlarni tanish va notanish vaziyatlarda qo‘llash, tahlil, abstraktsiya, konkretlash, sintezlash, tarkibiy, mantiqiy tahlil qilish, maqsadga muvofiq hukmlar, xulosalar chiqarish, baholashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kabi didaktik talablar asoslab berildi.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan Flipped classroom, Delphi usuli, TRIZ texnikasi, E.de Bononing lateral fikrlashni rivojlantirish metodikasi, Sinektika, “6-3-5 texnikasi”, A.Osbornning muammoni o‘zgartirish texnikasi, psixogimnastik mashqlar, kreativ topshiriqlarni loyihalash orqali “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” moduli, “Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” moduli, “Pedagogning mahorati va kreativligi”, “Tarix fanlarini o‘qitishning dolzarb muammolari” kabi modullar mazmuni boyitildi.

Konvergent va divergent fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan kreativ topshiriqlar (iyerarxik tuzilgan va o‘quv jarayonida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan obyektlar, vaziyatlar, hodisalarni bilish, yaratish, o‘zgartirish va yangi sifatda foydalanishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq vazifalarning tartiblangan to‘plami) ishlab chiqildi. Kreativ topshiriqlar mazmuni respondentlarning muammolarni aniqlash va qo‘yish qobiliyati; ko‘p sonli yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmasi; semantik moslashuvchanlik – turli g‘oyalarni ishlab chiqish xususiyati; o‘ziga xoslik – assotsiativ fikrlashni rivojlantirish, g‘ayrioddiy javoblar, nostandart yechimlar; tafsilotlarni qo‘shish orqali obyektни yaxshilash; moslashuvchanlik, obyektidagi yangi xususiyatlarni ko‘rish, ulardan yangicha foydalanishni topishga yo‘naltirish orqali kerativlik sifatleri takomillashtirildi.

Norasmiy ta‘limda Bosh ilmiy metodik markaz bilan hamkorlikda “Pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish” mavzusida 36 soatga mo‘ljallangan maqsadli kurs dasturi yaratildi, dastur asosida ushbu kursning didaktik ta‘minoti ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. “Pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish” maxsus kursi ta‘lim, ijtimoiy va gumanitar fanlar yo‘nalishi pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, kreativ kompetentligini takomillashtirish, konvergent, divergent, lateral fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirildi; yaratilgan masofaviy


malaka oshirish kursi o'quv rejasi, dasturi va o'quv kontenti Bosh ilmiy metodik markazning <https://mk.bimm.uz/> saytida joylashtirildi.

Informal ta'lim muhitida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirishning zamonaviy vositalari va usullarini tanlashda "lifelong learning"ning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqdik. Pedagogning shaxsiy-kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishning bosh g'oyasi hayot davomida o'qish g'oyasi bo'lib, uni amalga oshirishda raqamli gumanitar ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishga urg'u berildi.

Bugun adabiyotshunoslikda, falsafada va tarixda, pedagogikada katta ma'lumotlar bilan ishlash, statistik tahlilni bilish, dasturlash zaruriy malakalarga aylanib bormoqda. Buning uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar pedagoglari matematika va informatika fanlarini puxtaroq egallashlari kerak bo'ladi, chunki yaqin kelajakda raqamli hujjatlar, shaxsiy bulut xizmatlarini boshqarish va ishonch mexanizmlarini o'rganish; shaxsiy raqamli arxiv modelini, ijtimoiy-madaniy soha uchun raqamli loyihalarni yaratishda informatika usullari gumanitar fanlarga kirib, tilshunoslarni, arxivchilarni va madaniyatshunoslarni, tarixchilarni, pedagoglarni dasturlashni o'zlashtirishga majbur qiladi va oliy ta'limda "raqamli gumanitar fanlar" uchun o'quv dasturlari paydo bo'ladi.

Raqamli gumanitar ta'lim – bu ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlarni olib borishda raqamli texnologiyalar va kompyuter usullaridan foydalanish bilan bog'liq, kompyuter fanlari va gumanitar fanlar chorrahasida joylashgan tadqiqot, o'rganish va yaratish sohasi sifatida raqamli materiallar va bosma materiallardan foydalanishni o'z ichiga oladi hamda an'anaviy gumanitar fanlarni (tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyot, san'at, arxeologiya, pedagogika) o'qitish metodikasini kompyuter fanlari bilan birlashtiradi. Raqamli gumanitar ta'limda pedagogning roli – tashkilotchi va moderator, fanlararo repetitor (menejer), ta'lim loyihalarini ishlab chiquvchi mutaxassis, tyutor, o'yin texnologiyalari bo'yicha texnik; integrator (virtual va real tizimlar o'rtasidagi vositachi), tarmoq o'qituvchi-kuratori (onlayn platforma kuratori), internet-navigatsiya uchun instruktor, veb-psixolog, raqamli ta'lim muhiti uslubchisi (arxitektori) kabilardan iborat bo'ladi. Raqamli gumanitar ta'lim muhitida pedagogning shaxsiy-kasbiy ta'lim trayektoriyasi va kasbiy axborot maydonini maqsadga muvofiq rejalashtirish muhim hisoblanadi va pedagogning o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishini nazarda tutadi. Biz ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari uchun raqamli gumanitar ta'lim muhitida individual kasbiy rivojlanish dasturi mazmunini ishlab chiqdik (4-rasmga qarang).

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi va kvalimetriyasi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida tajriba-sinov ishlarini olib borish metodikasi, kreativ kompetentlikni aniqlash indikatorlari va mezonlari, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari asoslandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi uzluksiz malaka oshirish tizimida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, rasmiy malaka oshirishda kreativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika, bilvosita malaka oshirish ta'limida “Pedagogning kreativ kompe-



**3-rasm. Raqamli gumanitar ta'lim muhitida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogining individual kasbiy rivojlanish dasturi mazmuni**

tentligini rivojlantirish” mavzusida masofaviy kurs dasturining samaradorlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Qoraqalpoq davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti hamda Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy va tarmoq markazlarida pedagogik tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi:

aniqlovchi-asoslovchi bosqich (2019-2020-yillar)da ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlanganlik darajasi tashxis etildi, tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari aniqlandi, muammoning nazariy va amaliy holati o‘rganildi; to‘plangan tajribalar tahlil qilindi; pedagogik tajriba-sinov ishlarini

oʻtkazish uchun zarur boʻlgan materiallar tayyorlandi va dastlabki tajriba-sinov oʻtkazildi;

shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichi (2021-2022-yillar)da ijtimoiy-gumanitar yoʻnalish pedagoglari kreativ kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalar va metodlarning samaradorlik darajasi tashxis etildi. Tashxis asosida pedagogik tajriba-sinov materiallari mazmuniga va metodikasiga zarur oʻzgartirishlar kiritildi; olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi;

umumlashtiruvchi-yakunlovchi bosqich (2022-2023-yillar)da tajriba-sinov ishlari yakunlandi, olingan natijalar umumlashtirilib tahlil qilindi va tadqiqotning vazifalariga mosligi asoslandi, statistik ishlov berildi, ularning ishonchli ekanligi isbotlandi va ilmiy xulosalar chiqarildi.

Biz respondentlar faoliyatini “Ijtimoiy-gumanitar yoʻnalish pedagoglari kreativ kompetentligini baholashning pedagogik xaritasi” mezonlari asosida baholab bordik (4-jadvalga qarang):

#### 4-jadval

### Ijtimoiy-gumanitar yoʻnalish pedagoglari kreativ kompetentligini baholash mezonlari

Mezon	Koʻrsatkichlar
I. Pedagogning kognitiv yoʻnalganligi	Pedagogik faoliyatda muammoni oldindan koʻra bilish
	Tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni baholash malakasi
	Fantaziyasi, tasavvuri. Turli gʻoyalarni yaratishdagi intellektual salohiyati
	Loyihalash koʻnikmalari
	Fikrlarni tizimlashtirish, Kreativ fikrlash
	Tafakkur tezligi
	Originallik
	Dinamiklik, zukkolik, malumotlarni strukturaviy tahlil qilishi
II. Pedagogning motivatsion yoʻnalganligi	Bilimga intilishi, kreativ qiziquvchanligi
	Kreativ muvaffaqiyatga ishtiyoqi
	Liderlikka intilishi
	Rahbariyat tomonidan kreativ faoliyat uchun yuqori baho olishga intilishi
	Kreativ faoliyatning shaxsiy ahamiyati
	Oʻz-oʻzini rivojlantirishga, oʻstirishga intilishi
	Qiziquvchanlik, kreativ faoliyat metodologiyasini egallashga intilishi
	Faraz va goyalarni tez anglash
III. Pedagogning ijtimoiy yoʻnalganligi	Variativlik. Pedagogik vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qilishi.
	Mustaqil mulohaza yuritishi, oʻz fikrini bayon qilishdan tortinmaslik
	Pedagogik faoliyatda qotib qolgan fikrlarni inkor qilish qobiliyati, fikrlar qarama-qarshiligiga bardosh berishi
	Geosiyosiy axborot makonida axbotor “immuniteti”
	Ijtimoiy koʻnikmalarni amalda qoʻllash
	Muloqotga kirishuvchanlik
	Ijtimoiy, psixologik va kommunikativ moslashuvchanlik

	Ijtimoiy mas'uliyat, ijtimoiy faollik
	Ijtimoiy munosabatlar, huquq va burchlarni anglash
	Fanning turli sohalarini integrallashtirish
<b>IV. Pedagogning aksiyologik yo'nalganligi</b>	Qadriyatlar tizimi va milliy o'zlikka munosabat
	Tavakkalchilik, pedagogik tadqiqot metodlarini egallaganligi
	Mualliflik kontsepsiyalarini yarata olishi
	Tajriba-sinov ishlarini rejalashtira olishi
	Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish
	Faoliyatni yangilash, kamchiliklarni tuzatish malakasiga egaligi.
	O'zidan boshqa tadqiqotchilar tajribalarini tahlil qilishi va qo'llash.
	Hamkorlik qilish va boshqalarga metodik yordam ko'rsata olishi.
	Muammolarni oldini olish va bartaraf eta olishi
	Nostandart pozitsiya uchun javobgarlik
<b>V. Pedagogning emotsional xususiyatlari</b>	Kreativ faoliyatning darajasi (tempi)
	Kreativ faoliyat yuritishda shaxsning ishga bo'lgan munosabati, layoqati
	O'ziga ishonch, qaror qabul qila olishi
	Javobgarlik hissi
	Haqqoniylik, vijdonlilik
	Tashkilotchilik
	Emotsionallik, Intuitsiya
	Kreativ faoliyatga hissiy qiziqish
	Tasavvur kengligi
<b>VI. Pedagogning introspektivligi</b>	O'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash
	Refleksivlik
	Natijadorlik
	O'z-o'zini tahlil qilish
	Konstruktivlik
	Protsessual ko'nikmalar
	Kasbga ijodiy munosabat
	O'z-o'zini rivojlantirish
	Tizimli faoliyat ko'nikmalari

Ijtimoiy fanlar yoki sotsiologiyada indikator deganda (lotincha-ko'rsatgich) – asbob, qurilma, axborot tizimi sifatida o'rganilayotgan obyektning kuzatish va kuzatish jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'lchash vositasi, o'zgarishlarni obyektning boshqa xususiyatlariga to'g'ridan-to'g'ri tadqiq etish, baholash uchun ishlab chiqilgan parametrlarning majmuasi tushuniladi. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligi indikatorlari (o'z-o'zini anglash, empatiya, refleksiv, kognitiv, o'z-o'zini rivojlantirish, tabiiylik, natijadorlik, o'z-o'zini tarbiyalash, adekvat metodlardan foydalanish) asoslandi. Biz tomonimizdan taklif etilgan dasturlarning samaradorligi yuqorida keltirilgan mezonlar va indikatorlar bo'yicha o'rganildi. Shu bilan birga S.Mednikning RAT metodikasi, V.Vishnyakovaning “Kreativlik testi” so'rovnomasi ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari uchun moslashtirib, foydalanildi. Tajriba-sinov ishlarida jami 692 nafar


respondent ishtirok etdi. Respondentlar natijalarini tajriba boshi va tajriba yakunida baholash (“yuqori”, “o‘rta”, “quyi”) darajalandi. Nazorat va tajriba guruhlaridagi tinglovchilarning kreativ kompetentligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiy natijalar quyidagicha bo‘ldi (5-jadvalga qarang):

**5-jadval**

**Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari kreativ kompetentligi mezonlari bo‘yicha tajriba boshida respondentlar ko‘rsatkichlari (bevosita malaka oshirish shaklida)**

№	Mezonlar	Yuqori daraja				O‘rta daraja				Quyi daraja			
		TG		NG		TG		NG		TG		NG	
		son	%	son	%	son	%	son	%	son	%	son	%
1.	Kognitiv	38	9,8%	27	8,9%	78	20,1%	71	23,4%	273	70,2%	205	67,7%
2.	Motivatsion	37	9,5%	26	8,6%	80	20,6%	72	23,8%	272	69,9%	205	67,7%
3.	Ijtimoiy	36	9,3%	25	8,3%	82	21,1%	74	24,4%	271	69,7%	204	67,3%
4.	Aksiologik	35	9,0%	24	7,9%	81	20,8%	72	23,8%	273	70,2%	207	68,3%
5.	Emotsional	34	8,7%	23	7,6%	79	20,3%	71	23,4%	276	71,0%	209	69,0%
6.	Introspeksiya	36	9,3%	24	7,9%	83	21,3%	73	24,1%	270	69,4%	206	68,0%
<b>Jami o‘rtacha</b>		<b>35</b>	<b>9,0%</b>	<b>24</b>	<b>7,9%</b>	<b>80</b>	<b>20,6%</b>	<b>72</b>	<b>23,8%</b>	<b>274</b>	<b>70,4%</b>	<b>207</b>	<b>68,3%</b>

“Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Madaniyatshunoslik”, “Ma’naviyat asoslari, dinshunoslik”, “O‘zbekiston tarixi”, “Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha)”, “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”, “Pedagogika va psixologiya”, “Tarix o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi tinglovchilari bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari boshida o‘rtacha samaradorlik aniqlandi (5-rasmga qarang):




**4-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining tajriba boshidagi o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari**

Tajriba-sinov jarayonida olingan natijalarning samaradorligi Student statistikasining gipotezalari asosida aniqlandi. Statistik natijalar respondentlarda kreativlikning o‘ziga xos xususiyatlari rivojlanganligi tajriba boshida bir-biridan farq qilmasligini ko‘rsatdi, Student statistikasining empirik qiymati kritik qiymatdan kichikligiga asoslanib tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichlari bir-biriga teng bo‘lgani uchun tajriba va nazorat guruhlarining bilim darajasi tajriba boshida bir xil bo‘lganligi to‘g‘risida xulosa qilindi.

**Ijtimoiy-gumanitar yoʻnalish pedagoglari kreativ kompetentligi mezonlari  
boʻyicha tajriba yakunida respondentlar koʻrsatkichlari  
(bevosita malaka oshirish shaklida)**

№	Mezonlar	Yuqori daraja				Oʻrta daraja				Quyi daraja			
		TG		NG		TG		NG		TG		NG	
		son	%	son	%	son	%	son	%	son	%	soni	%
1.	Kognitiv	99	25,4%	30	9,9%	203	52,2%	77	25,4%	87	22,4%	196	64,7%
2.	Motivatsion	98	25,2%	29	9,6%	205	52,7%	78	25,7%	86	22,1%	196	64,7%
3.	Ijtimoiy	97	24,9%	30	9,9%	208	53,5%	78	25,7%	84	21,6%	195	64,4%
4.	Aksiologik	98	25,2%	28	9,2%	203	52,2%	77	25,4%	88	22,6%	198	65,3%
5.	Emotsional	99	25,4%	30	9,9%	204	52,4%	76	25,1%	86	22,1%	197	65,0%
6.	Introspeksiya	96	24,7%	30	9,9%	204	52,4%	74	24,4%	89	22,9%	199	65,7%
<b>Jami oʻrtacha</b>		<b>98</b>	<b>25,1%</b>	<b>29</b>	<b>9,7%</b>	<b>205</b>	<b>52,6%</b>	<b>76</b>	<b>25,0%</b>	<b>87</b>	<b>22,2%</b>	<b>198</b>	<b>65,3%</b>

Tadqiqot ishida taklif etilgan dastur, metodlar va didaktik materiallarning samaradorligi respondentlarda oʻz-oʻzini anglash, empatiya, oʻz-oʻzini tarbiyalash, reflektiv, kognitiv, tanqidiy fikrlash, fikrlarni tizimlashtirish, raqamli savodxonlik koʻrsatkichlari boʻyicha tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan oʻsishga erishilganligini koʻrishimiz mumkin.



**5-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining tajriba oxiridagi oʻrtacha oʻzlashtirish koʻrsatkichlari**

Respondentlarda kreativlikning oʻziga xos xususiyatlari rivojlanganligi tajriba oxirida tajriba va nazorat guruhlarining oʻrtacha oʻzlashtirish koʻrsatkichlari bir-biridan farq qilib, ishonch oraliqlarining ustama-ust tushmasligi va Student statistikasining empirik qiymati kritik qiymatdan kattaligi olib borilgan tadqiqot ishining tajriba yakunida samarali ekanligini koʻrsatdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan natijalar samaradorlik va oʻrtacha oʻzlashtirish koʻrsatkichlarining haqqoniyligini hamda olingan natijalarning ishonchliligini, tadqiqot ishi doirasida tanlangan metodikalarning tadqiqot maqsadlari va vazifalariga mos ekanligini bildiradi. Yakuniy natijalar olib borilgan tadqiqot doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi asosli ekanligini koʻrsatadi, tajriba guruhlarida nazorat guruhiga nisbatan 17% ga oʻsishga erishilganligi tanlangan metodikalar va ishlab chiqilgan

metodik mahsulotlar pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirilganligini isbot qiladi.

## XULOSA

“Uzluksiz malaka oshirish jarayonlarida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirish” mavzuda olib borilgan tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni asoslashga xizmat qiladi:

1. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogi kreativ kompetentligini ilmiy asosda rivojlantirishda ta'limning zamonaviy paradigmalari: kompetensiyali, aksiologik, androgogik, innovatsion, tizimli, akmeologik, evtagogik tamoyillariga tayanish lozimligi asoslangan.

2. “Kreativlik” tushunchasi antik davrda Arastu falsafasidan boshlanib, o'rta asr Sharq va G'arb falsafasidagi bahs-munozalarda qizg'in muhokama qilinganligi, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrda falsafa, pedagogika va psixologiya sohasidagi olib borilgan tadqiqotlar natijasida insonning ijodiy aql-idroki orqali voqea va hodisalarning mohiyatini bilish xususiyatini ifodalovchi fundamental tushunchaga aylanganligi dalillandi. “Kreativ kompetentlik” tushunchasi pedagogning kasbiy faoliyat tajribasi asosida bilim, tafakkur, fikrlash tarzi, qobiliyatlar, kasbiy-pedagogik ko'nikmalar, ish uslubi va shaxsiy sifatlarni psixologik, pedagogik, ijtimoiy resurslardan foydalanish yo'li bilan rivojlantirishni talab etadigan kasbiy rivojlanishning ijodiy daraja ekanligi asoslandi.

3. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogi kreativ kompetentligi tarkibiy tuzilmasi ta'limning zamonaviy rivojlanish darajasi, ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilariga qo'yiladigan malaka talablari, kasbiy kompetensiyalar mazmuni, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlariga mos ravishda o'rganildi. O'rganish natijasida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogi kreativ kompetentligi – motivatsion, kognitiv, ijtimoiy, aksiologik, emotsional va introspeksiya kabi tarkibiy komponentlari va kreativ kompetentlikni rivojlanish bosqichlari mazmuni ishlab chiqildi.

4. Uzluksiz malaka oshirish tizimining didaktik imkoniyatlari bevosita, mustaqil va muqobil malaka oshirish shakllarini tahlil qilish asosida o'rganildi va uzluksiz malaka oshirishning samarali tizimida ta'limning rasmiy (bevosita), norasmiy (muqobil) va informal (mustaqil ta'lim) shakllarini kreativ kompetentlikni takomillashtirishdagi imkoniyatlari aniqlandi.

5. Kreativ kompetentlik pedagogning o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini rivojlantirishi jarayonida analitik tahlil, konsentratsiya, g'oyalar inkubatsiyasi, g'oyalar qidirish yo'lidagi past-balandliklar, to'liqinli taraqqiyot, analiz va sintezga asoslangan o'z-o'zini tahlil qilishni talab etishi va shu jarayonda pedagogik faoliyat takomillashib borishi aniqlandi. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagogi kreativ kompetentligi motivatsion-hissiy, taqlid qilish, ta'sirlarni uzatish, kasbiy transformatsiya va kreativlikni uyg'unlashtirish bosqichlarida rivojlanib borishi asoslandi.

6. “Ta'limni uyga yaqinlashtirish”, ta'lim oluvchilarni oila davrasida ta'lim olishi uchun sharoit yaratish g'oyasi orqali adekvatlik, aniqlik, universallik talablari

asosida “Ijtimoiy gumanitar yo‘nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modeli” ishlab chiqildi va uzluksiz malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir-birini to‘ldirish tamoyillari, uzluksiz malaka oshirishning didaktik imkoniyatlari, pedagogning shaxsiy-kasbiy ta‘lim trayektoriyasi va axborot maydonini loyihalash orqali amalga oshirilishi dalillangan.

7. “Lifelong learning”ning asosiy xususiyatlari va XXI asr ta‘limi tizimidagi raqamli transformatsiya pedagogning kasbiy funksiyalari o‘zgarishi, kasbiy-pedagogik kompetensiyalar tarkibini yangilanishi ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglarining kognitiv ehtiyojlari, kreativ kompetentlikni takomillashtirishning bugungi zaruratidan kelib chiqib, pedagogning o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishi yangi bilimlar uzluksiz, ixtiyoriy ravishda o‘rganiladigan norasmiy va informal (mustaqil) ta‘lim asosiga qurilishi lozimligi asoslangan.

8. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida katta hajmdagi raqamli ma‘lumotlar, ijtimoiy sohalar va ta‘lim-tarbiya jarayonlariga raqamli o‘qitishni kirib kelishi raqamli gumanitar ta‘lim muhitida har bir pedagog kreativ yondashuv asosida o‘z-o‘zini rivojlantirishi, individual kasbiy rivojlanishning axborot maydonini shakllantirishi, evtagogik tamoyillarga asoslangan individual ta‘lim muhiti (Personal learning environment)ga yo‘naltirilgan kasbiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishi zarurligi asoslab berilgan.

9. Bevosita malaka oshirish kurslaridagi “Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” modullarini o‘qitishda kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun Flipped classroom, TRIZ texnikasi, Delphi usuli, E.De Bononing lateral fikrlashni rivojlantirish metodikasi, Sinektika, Uolt Disneyning kreativ fikrlash texnikasi, “6-3-5 texnikasi”, A.Osbornning muammoni o‘zgartirish texnikasi kabi kreativ fikrlashni talab etadigan texnologiya va metodlardan foydalanilsa, o‘quv mashg‘ulotlari psixogimnastik mashqlar, kreativ topshiriqlar tizimi asosida tashkil etilsa, ta‘limning sifat va samaradorligi oshishi dalillangan.

10. O‘z-o‘zini anglash, empatiya, refleksiv, kognitiv. o‘z-o‘zini rivojlantirish, tabiiylik, natijadorlik, o‘z-o‘zini tarbiyalash, adekvat metodlardan foydalanish kabi kreativ kompetentlik indikatorlari pedagogning ravonlik, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik, sezgirlik va farazlarni rivojlanganligi kabi kreativ sifatlarini aniqlashga asos bo‘lishi pedagogik tajriba-sinov ishlarida tasdiqlangan.

11. Pedagogik kvalimetriya va kreativ kompetentlikni baholash metodlari asosida qiyosiy tavsifga ega bo‘lgan tajriba-sinov ishida tajriba va nazorat guruhlarida bevosita malaka oshirish kurslarida “Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” modullari va norasmiy ta‘limda “Pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish” kursi bo‘yicha olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini Styudent statistikasi asosidagi tahlillari kurs yakunida tajriba guruhlarining natijalari nazorat guruhlariga nisbatan 1,7 barobar oshganligi, tajriba guruhlarining natijalari 17 foizga yuqoriligini anglatadi. Bu ishlab chiqilgan kurs va uni o‘tkazish metodikasining samarali ekanligini isbotlaydi.

Tadqiqot jarayonida olingan xulosalarga asoslanib, uzluksiz malaka oshirish jarayonida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish pedagoglari kreativ kompetentligini takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni tavsiya etamiz:

malaka oshirishning rasmiy, norasmiy va informal shakllari va ularning didaktik tizimi xususiyatlariga mos ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish (continuous professional development), o'zini-o'zi rivojlantirish (self-development), bajarish orqali o'rganish (learning by doing) muhitini yaratishga yo'naltirilgan metodikalarni amaliyotga joriy etish;

malaka oshirish ta'limida o'quv modullari va o'quv topshiriqlarining mazmuni "auditoriyaning ijtimoiy portreti"ni hisobga olib, tanqidiy, mantiqiy, tizimli va kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi; tinglovchilarning ta'limiy faoliyatini tushunish, interpretatsiya, ekstrapolyatsiya, tahlil, abstraktsiya, sintezlash, tarkibiy, mantiqiy tahlil qilishga qaratilish;

raqamli gumanitar ta'lim muhitida ijtimoiy-gumanitar yo'nalish pedagoglari ijtimoiy rolining o'zgarishi (tashkilotchi va moderator, fanlararo repetitor, ta'lim loyihalarini ishlab chiquvchi mutaxassis, tyutor, integrator (virtual va real tizimlar o'rtasidagi vositachi), onlayn platforma o'qituvchi-kuratori, veb-psixolog, raqamli ta'lim muhiti uslubchisi)ni hisobga olib, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi malaka oshirish kurslarida "Mutaxassislik fanini raqamli texnologiyalar vositasida o'qitish metodikasi" nomli o'quv modulini kirirtish;

kraudsorsing loyihalari, raqamli va kollaborativ (muammolarni tinglovchilarning pedagogik tajribasidan kelib chiqib hamkorlikda o'rganish, yangi g'oyalar yaratish va uni jamoa bo'lib takomillashtirish) texnologiyalaridan keng foydalanish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.28/05.05.2023.Ped.165.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ НАУЧНО  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК  
ИМЕНИ Т.Н.КАРЫ НИЯЗИ**

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**ЖУМАНИЁЗОВА МУХАЙЁ ТОЖИЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ  
ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНОГО  
НАПРАВЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ НЕПРЕРЫВНОГО ПОВЫШЕНИЯ  
КВАЛИФИКАЦИИ**

**13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.3.DSc/Ped516.**

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.uzpfiti.uz](http://www.uzpfiti.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

<b>Научный консультант:</b>	<b>Мусурманова Айниса Мусурмановна</b> доктор педагогических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Мардонов Шукрулло Кулдошевич</b> доктор педагогических наук, профессор <b>Исмаилова Зухра Карабоевна</b> доктор педагогических наук, профессор <b>Абдуллаев Сафибулло Хабибуллоевич</b> доктор педагогических наук (DSc), доцент
<b>Ведущая организация</b>	<b>Самаркандский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_ часов на заседании Специализированного совета DSc.28/05.05.2023.Ped.165.01 при Узбекском научно-исследовательском институте педагогических наук имени Т.Н.Кары Ниязи (адрес: 100736, город Ташкент, улица Фурката, дом 174. Tel.: (99871) 254-63-21; факс: (99871) 254-63-21; e-mail: [uzpfiti1@umail.uz](mailto:uzpfiti1@umail.uz), [uzpfiti@exat.uz](mailto:uzpfiti@exat.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского научно-исследовательского института педагогических наук имени Т.Н.Кары Ниязи (зарегистрирована за №\_\_). Адрес: 100736, город Ташкент, улица Фурката, дом 174. Tel.: (99871) 254-63-21; факс: (99871) 254-63-21.

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_ 2023 года).

**Х.И.Ибраимов**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор педагогических наук, профессор

**Х.М.Тожибоева**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
доктор педагогических наук (DSc), ст.н.с.

**А.Х.Махмудов**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, доктор  
педагогических наук (DSc), ст.н.с.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировых системах высшего образования причину, по которой проблеме совершенствования креативной компетентности придается особое значение, следует понимать как необходимость адаптации профессиональных потребностей и педагогического мастерства педагогических кадров к современному уровню развития мирового общества. В контексте концепций «Цели устойчивого развития (SDGs, ООН)», «Европейское пространство высшего образования» (EHEA), ЮНЕСКО «На пути к обществам знаний» (UNESCO. World Report 2005. “Towards Knowledge Societies”), «Обучение на протяжении всей жизни» (Lifelong Learning), Беленский рамок действие принятый на шестой Международной конференции ЮНЕСКО по образованию взрослых (CONFINTEA VI), Европейский центр развития профессионального образования (CEDEFOP), «Стратегия 2020» (Россия) внедрение модели образование на основе креативного подхода (Creative Approach-based Education), совершенствование механизмов непрерывного развития навыков креативного мышления на основе демократизации образовательной среды определены как одно из стратегических направлений образования XXI века.

В мировом сообществе современные направления профессионального развития включают в себя образование, в котором мир и прогресс взаимосвязаны, «образование, поддерживающие мир, права человека и демократию», «образование, способствующие развитию», «свободное и полноценное развитие человека», признание «достоинства и равноправия» с точки зрения личности и общества, движутся к мировому образованию, в котором есть возможности для «выбора образовательных потребностей». В системах подготовки кадров развитых стран становятся важными вопросы развития адаптивных (soft skills) компетенций как транспрофессиональных навыков в социальной среде на основе акмеологического, инновационного, компетентностного, системного, андрагогического, интегративного, аксиологического и эвтагогических подходов, индивидуализации содержания профессионально-педагогического образования, совершенствование творческой компетентности в условиях цифровых технологий и цифрового образования.

В Республике Узбекистан исходя из необходимости внедрения инновационных подходов к процессам повышения квалификации педагогических кадров и применения механизмов постоянного развития профессиональной компетентности кадров определены такие задачи, как поднятие системы повышения квалификации руководящих и педагогических кадров на новый уровень, широкое внедрение в практику современных форм повышения их профессиональной квалификации, а также дифференцированной и альтернативной системы непрерывного повышения квалификации, учитывающей результаты научной и научно-педагогической деятельности, достижение высоких результатов в системе непрерывного образования на основе адаптации системы переподготовки и повышения квалификации кадров

к уровню международных стандартов, повышения профессионального потенциала педагогических кадров<sup>1</sup>.

В эти задачи входят повышение качества непрерывного профессионального образования, критическое и креативное мышление, системный анализ, внедрение методик и технологий по формированию компетенций и практических навыков в учебном процессе, усиление внимания к качеству подготовки кадров по гуманитарно-педагогическим направлениям на основе передовых педагогических технологий, основанных на международных образовательных стандартах; ориентация учебных планов и программ по направлениям и специальностям педагогического образования на формирование навыков применения современных педагогических технологий осуществляется за счет совершенствования инфраструктуры педагогического образования.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022–2026 годы», УП-5789 от 27 августа 2019 года «О внедрении системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений», УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №797 от 23 сентября 2019 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы повышения квалификации руководителей и педагогических кадров высших образовательных учреждений», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

### **Обзор зарубежных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.**

В международных документах, принятых для обучения взрослых, определены международные стандарты организации образования взрослых, в частности Гамбургской декларации об обучении взрослых (The Hamburg Declaration on Adult Learning, 1997); декларация UNESCO о значении и

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан УП-5789 от 27 августа 2019 г. «О внедрении системы непрерывного повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений».

<sup>2</sup> Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: <https://unesdoc.unesco.org/search/N-EXPLORE-93946cf0-1133-4b43-aed6-ee8d2717a984>, <https://www.uil.unesco.org/en/seventx-international-conference-adult-education?xub=39>, <https://en.snu.ac.kr/research/xigxligxts>, <https://en.sjtu.edu.cn/>, <https://www.skolkovo.ru/>, <https://www.londonmet.ac.uk/>, [https://www.unipage.net/ru/6500/university\\_of\\_txe\\_nelonponnesx](https://www.unipage.net/ru/6500/university_of_txe_nelonponnesx)<https://www.stanford.edu/>, <https://le.ac.uk/> [materiellari asosida tayyorlandi](https://www.materiellari.asosida.tayyorlandi).

будущем образования взрослых; Дакарские рамки действий: образование для всех: выполнение коллективных обязательств (The Dakar framework for Action: Education for All: Meeting our Collective Commitments); UNESCO; Право на образование, (UNESCO The Right to Education); Декларация Европейской комиссии; Обучение на протяжении всей жизни в Европе (Lifelong Learning in Europe: Moving Towards EFA Goals and CONFINTEA V Agenda); Соглашение о сотрудничестве экспертов государств-участников СНГ в области повышения квалификации педагогических кадров (Ялта, 2007), CONFINTEA VII – в Марракешских рамках действий: ориентация образования взрослых на технологизированное общество на основе использования преобразующей силы образования (Марокко, 2022).

В настоящее время в ведущих научных центрах мира ведутся научно-исследовательские работы по созданию технологий для учителей (Институт пожизненного образования YUNESKO); обеспечению равных возможностей для адаптации и развития к требованиям социальных и экономических изменений (Seoul National University); инновации в образовании: разработка эффективных методов преподавания и обучения и контекстов для обучения на протяжении всей жизни (Korea Advanced Institute of Science & Technology, Южная Корея); вопросам использования мобильных технологий для базовой грамотности в образовании взрослых, получению онлайн и дистанционных квалификаций третьего уровня, использованию виртуального присутствия для более безопасного и эффективного обучения (London Metropolitan University, Англия; Shanghai Jiao Tong University, SJTU, Китай); гражданскому образованию: для усиления образования взрослых для социальных перемен (University of Peloponnese, Греция).

